



KUZGI TUNLAM (AGROTIS SEGETUM (DEN & SCHIFF, 1775)NING FARG'ONA VILOYATINING TURLI HUDUDLARIDAGI SABZI AGROTSENOZIDA TARQALISHI VA ZARAKUNANDALIK XUSUSIYATIGA OID MA'LUMOTLAR

A.Yoqubov

tadqiqotchi, Farg'ona davlat universiteti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11198715>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2024 yil
Ma'qullandi: 10-May 2024 yil
Nashr qilindi: 15-May 2024 yil

KEY WORDS

Agrotis segetum, daucus carota, hayot sikli, qurt, agrotsenoz


ABSTRACT

A. segetumning sabzi agrotsenozida tarqalishi va uning ildizmevalariga zarar yetkazilishi bo'yicha tadqiqotlar Farg'ona viloyatining Oltiariq, Toshloq, Quva tumanlarida olib borildi. Sabzi ildizmevalarining maksimal zararlanish darajasi Oltiariq tumani Qiziltepa va Toshloq tumanining Axshak hududlarida qayd etilgan.

Sabzi dunyodagi eng muhim sabzavot ekinlaridan biri bo'lib, dunyo bo'yicha keng miqyosda ekiladi. Eng ko'p sabzi yetishtiruvchi mamlakatlar reytingida Xitoy 2019 - yilda sabzi yetishtirish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab 21 482 971 tonna, undan keying o'rinlarda esa O'zbekiston 2 769 613 tonna va AQSH esa 2 259 000 tonna sabzi yetishtirgan [6]. O'zbekiston hududida 2019 yilda yetishtirilgan sabzining 422 983 tonnasi (15,3%) Farg'ona viloyatida yetishtirilgan.


Kuzgi tunlam sabzavot, don, kartoshka, lavlagi, karam, poliz, hatto meva va rezavor ekinlarini o'z ichiga olgan 147 tadan ortiq o'simlik turlariga zarar etkazadi. Lichinkalari soya, kungaboqar, makkajo'xori, no'xat, bedaga katta zarar yetkazishi mumkin. [1,2]

Kuzgi tunlamning Sabzi agrotsenozida tarqalishi bo'yicha tadqiqotlar 2022 yilning sentyabr-noyabr oylari davomida Oltiariq tumanining Qiziltepa (40°30'10"N 71°29'07"E), Oq bo'yra (40°24'52"N 71°32'37"E), Xamza (40°25'40"N 71°31'46"E), Qo'shtepa tumanining Oq tepa (40°26'112"N 71°35'57"E), Qorajiyda (40°31'52"N 71°33'56"E), Toshloq tumanining Axshak (40°29'54"N 71°47'08"E), Varzak (40°31'38"N 71°45'38"E), Qumariq (40°35'30"N 71°50'52"E), Quva tumanining Akbarobod (40°32'59"N 71°55'27"E) hududida fermer, dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqa yerlarida yetishtirilayotgan sabzi (*Daucus sativus* Hoffm) ekilgan maydonlarda umumiy qabul qilingan entomologik uslublar asosida olib borildi. Qurtlarni tuproqdan yig'ish va miqdor jihatdan hisobga olish o'simlik ekilgan maydon qirg'oqlarining 8 ta qismidan shuningdek maydon markazining ham 8 ta qismidan 0,5x0,5m (0,25 m²) va 50 sm gacha chuqurlikdagi tuproq qatlamlaridan K.K.Fasulati (1971) uslubida namunalar olinib, 5x5 mm o'lchamli entomologik elak yordamida tuproq elandi.




Ochiq maydonlardagi yoz faslida ekilgan sabzi vegetatsiyasi yozning birinchi o'n kunligidan boshlanib, to kuzning ikkinchi yarmiga qadar davom etadi. Bu paytda turli hasharotlar shu jumladan kuzgi tunlam hayot siklining ayrim muddatlari sabzi o'simligi bilan bog'langan bo'ladi. Ayniqsa, o'simlik ilk vegetatsiya davridanoq zararkunandalarni o'ziga jalb eta boshlaydi [3,4,5].

Hudud nomi	Ekin maydonining chetki qismi		Ekin maydonining markaziy qismi		O'rtacha soni	
	Lichinka soni	Zararlangan ildizmeva soni	Lichinka soni	Zararlangan ildizmeva soni	Lichinka soni	Zararlangan ildizmeva soni
Qiziltepa	4,5	14	2,25	7	3,375	10,5
Oq bo'yra	2,25	7	1,25	4	1,75	5,5
Xamza	0,75	3	0,25	1	0,5	2
Oq tepa	2,25	7	1,0	3	1,625	5
Qorajiyda	0,75	3	0,25	1	0,5	2
Axshak	3,25	10	1,5	5	2,375	7,5
Varzak	0,25	1	-	-	0,125	0,5
Qumariq	0,25	1	-	-	0,125	0,5
Akbarobod	0,25	1	-	-	0,125	0,5
O'rtacha soni	1,61	5,22	0,72	2,33	1,165	3,77



Bundan tashqari, kuzgi tunlam qurtlari sonining populyatsiya miqdor zichligi ekin maydonining chetki qismlaridan ekin maydonining markaziga tomon kamayib borishligi aniqlandi. Jumladan Qiziltepa hududida joylashgan sabzi agrosnozining markaziy qismida 1 m² yer maydoniga 2,25 ta lichinka, chetki qismida esa 4,5 ta lichinka, kam zararlangan hududlar: Akbarobod, Varzak va Qumariq hududlarida esa sabzi agrosnozining markaziy qismidagi yer maydonida lichinka qayd etilmadi. Ekin maydonining chetki qismida esa 0,25 ta lichinka to'g'ri kelishligi qayd etildi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Яхонтов В.В. Вредители сельскохозяйственных растений и продуктов Средней Азии

и борьба с ними. – Ташкент. 1953. – 661 с.

2. Alimuhamedov A., Xo'jaev Sh. "G'o'za zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari". Toshkent, 1979. 12-45 b

3. Zokirov I. I. Fauna and ecology of insects of melon crops of Central Ferghana: Abstract of a doctoral dissertation in biological sciences. – 2019.

4. Zokirov I. I., Azimov D. A. The Fauna of Insects of Vegetables and Melons of Central Fergana, Especially Its Distribution and Ecology //International Journal of Science and Research (IJSR). – 2019. – Т. 8. – №. 8. – С. 930-937.

5. Yoqubov A.A., Mahmudov M.U. Kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Denis&Schiff) ning biologik xususiyatlari haqida// "Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!" mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari, -Farg'ona, 2022. 81- 82b.

6. <https://www.agro.uz/ishlab-chiqarish-diagramma/>

